

INSON QADR-QIMMATI

Muborak Toshboyeva

Toshkent davlat agrar universiteti,

Mevachilik va uzumchilik yo’nalishi 21/50 guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada jamiyatdagi insonlarning qadr-qimmati to’g’risidagi fikrlar keltirilgan. Tarixdagи jahon urushlari va ularning insonlar hayotidagi salbiy oqibatlari ham aytib o’tilgan. Biz kelajak avlodning ham bunday ayanchli vaziyatlarga bo’lgan qarashlari ham yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: Qadriyat, tarbiya, jahon urushlari va uning oqibatlari, milliy qadriyatlar va qarashlar.

Inson qadri — ulug’. U ertaga emas, uzoq kelajakda emas, aynan bugun o‘z hayotidan rozi va mammun bo‘lib yashashi kerak. Yaxshiliklar, xayrli ishlar bardavom bo‘lib, inson qadri ulug’langan yurt doimo taraqqiy etadi. Xalqi hamjihatlikda, mehr-muruvvatda umrguzaronlik qiladi. Shu bois, mamlakatimizdagi bosh islohotlarda inson sha’ni, uning qadr-qimmatiga katta e’tibor berilmoque da. Taraqqiyotimizning yangi davrida aholimiz, ayniqsa, yoshlарimiz ongu shuurida inson qadriga bo’lgan e’tiborning amaliy ifodasi shakllanmoqda, ushbu fazilatlar xalqimiz turmush tarzida tobora mustahkam qaror topib bormoqda.

Tinchlik bu - qanchalik to’p ma’noga ega. Tinchlik musaffo osmondagи qushlarning erkin parvozi, bolalar kulgusi, beshik quchoqlab o’tirgan ona tabbasumi va a’llasi, tandirdan uzulgan issiq non, choyxonada o’tirgan yoshi ulug’ insonlarning davrasi. Shu emasmi tinchlik? Bu farovon hayotga erishguncha tariximizda qanday mashaqqatli kunlar bo’lmagan. Bugungi davr uchun jahon urishlari odamzod tarixida eng yirik qonli urushlardan biri hisoblanadi. Urushda 38 ta mamlakat qatnashgan, ularda jami o’rtacha 1.5mlrd ortiq aholi yashar edi. Urushda esa 74mln ga yaqin insonlar vatan uchun janga safarbar etildi. Jami 10mln dan ortiq kishilar jangda halok

bo'lgan. Ko'p aholi esa ochlikdan, yuqumli kasallikdan olamdan ko'z yumgan . Davlatlar o'z milliy boyliklarining uchdan bir qismini yo'qotdilar. Ikkinchi jahon urishida esa Jahon tarixida eng yirik urish bo'lib, bunda jami bo'lib 61 ta davlat qatnashgan. Ulardan 47 tasi “Aksihetlar ittifoqi” tarafida, 14 tasi o'q mamlakatlar tarafida bo'lgan. Urish talofatsiz bo'limgani kabi bu talofatlar 6 yil davom etdi. Bunda 110 mln ga yaqin harbiylar ishtirok etgan va 60 mlnga yaqin odam halok bo'lgan. Halok bo'lganlar safida begunoh va beg'araz insonlar bo'lganligi ayanchli holat. Jahon urishi yillarida fashizmga qarshi qo'liga qurol olib jang qilgan O'zbekistonlik jangchilarning soni nihoyatda ko'p bo'lib, bu 263000 dan ziyod kishi halok bo'lgani, 132670 ta kishilar bedarak yo'qolgan qanchadan qancha insonlar urishdan nogiron bo'lib qaytishganlari juda alamlidir. Bu raqamlardan ko'rinish turibdiki bu urishlar insoniyatga talofatdan boshqa hech nima bera olmadi. Urush o'z nomi bilan urush edi, bu janglardan kamdan-kam yurtdoshlarimiz omon qaytishdi. Bir qanchalarining hoki o'zga yurtlarda qolib ketdi, bir qanchalari mayib-majruh, nogiron bo'lib qaytishdi. Yurtdoshlarimiz faqat frontlarda jang qilishmadni, ular mamlakat ichkarisida ham xalq xo'jaligini tiklash, xalq farovonligini yuksaltirishishida chinakam matonat ko'rsatishdi. Ular boshiga kelgan sinov va musibatlar faqat bugina emas, ota-bobolarimizning kattagina qismi qatagon yillarining qurboni bo'lishi. Faqatgina insonlarning qadr-qimmati toptalgani qoldi halos. Bu esa xalqlarni o'z qadryati, qarashlaridan mahrum bo'lishi darajasiga olib keldi. Aslini olganda inson qadr-qimmati nima? .Bu insonning erkin yashashi, mustaqil fikrlashi, istagan diniga e'tiqot qilishi, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi emasmi? .Bu fojiali urishlar esa insonlarni bu huquq va erkinliklardan mahrum qildi. Bu kulfatlarning sababchilari kim deb o'ylaysiz? Bunga albatda insonning o'zi ham tom ma'noda sababchi bo'lib qoladi. Biz hozir ilm-fan rivojlangan tarraqiyot dunyoda yashayabmiz. Nahotki biz insonlarga tarixda yo'l quyilgan xatolar dars bo'lmasdi. Insonlar tarixni bilib, o'qib, o'rganib yana nega xatoga yo'l qo'ymoqdalar. Tarixda bo'lgan kulfat yo'qotishlar dars bo'lmasdimi?- deb o'ylab qolasan kishi. Nega bu dunyoda urishsiz va yo'qotishlarsiz insonlar yashay olishmaydimi?. Hozirgi kunda bo'layotgan voqealarga men va men kabi yoshlarning

fikrlarimiz tamoman boshqacha: urish bilan hech narsaga erishib bo'lmaydi va biz erkin va farovon hayot sari intilamiz. Haqiqatan, el-yurt manfaati yolda fidokorlik korsatib, bugun qarilik pallasida turgan ota-bobolarimiz mehnati va jonbozligini qadrlash, ularga hurmat va ehtirom korsatish bugungi avlodlarning sharaflı burchi, chuqur masuliyatidir. Alloh taologa beedad hamdu sanolar aytamizki, mana bugun ulug ajdodlarimiz orzu qilgan buyuk nemat – Vatan ozodligi va mustaqilligiga erishilgan nurli kunlarga etib keldik. Bugungi davrda Yangi O'zbekiston “Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat” degan muhim g'oya negizida barpo etilmoqda. Davlatimiz rahbari belgilab bergen bu ulug'vor maqsad asosida xalqimiz yangidan-yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti SHAVKAT MIROMONIVICH MIRZIYOYEV 2022-yilni ”INSON QADRINI ULUG'LASH VA FAOL MAHALLA” YILI deb nomlanishi bejiz emas. Mamlakatimizda ijtimoiy himoya masalasida amalga oshirilayotgan ishlar ko'لامи tobora kengayib borishi va inson manfaati va qadri ustuvor ekanligining dalolatidir. Inson dunyoda umid bilan yashshaydi. “Orzularimizga yetay, shinam uy-joyim bo'lsa, yon atrofimsa qulay sharoit, bekamu ko'st muhit hokum sursa, jamiyatga, raiyatga, davlatga, oilamga, ota-onamga, do'st-u yorlarga, mahalla ko'yga, qishlog'imga, yurtinga foydam tegsa, murodu maqsadim ushalsa” deydi. muhtaram perezidentimiz o'z nutqlarida. Bizning mustaqil O'zbekistonimizda inson qadriyati oliy darajada qadrlanadi. Chunki bunyodkorlik - xalqimizning eng oljanob fazilati. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, o'zbek tom ma'noda bunyodkordir, do'ppisida suv tashib bo'lsa ham daraxt ko'kartiradi. Darhaqiqat, mustaqillik yillarida mamlakatimizda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy-madaniy, ma'naviy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, erkinlashtirish jarayonlari va bunyodkorlik ishlari bunga yorqin misol bo'ladi. Bu muhitda o'sgan yosh avlod bundanda buyuk farovon keljak barpo eta olishi shubhasizdir. Biz kelajagimizni shunday ulug' darajada ko'ra olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. www.wikipediya.uz